

PSIXOLOGIYA FANINING PREDMETI VA RIVOJLANISHI, TARIXI,  
SOXALARI VA TADQIQOTI. PSIXIKA VA ONG.

O'razova Inobad Normurod qizi

*Termiz davlat pedagogika instituti talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada psixologiya nima uchun kerak, inson o'zini bilish va yaqinlarini yaxshiroq tushunish uchun psixologiyaga murojaat qilish, psixologiya fanining predmeti va rivojlanishi, tarixi soxalari va tadqiqotlarini o'rganish, psixologiya fani psixika va ong tushunchalarini shaxs tomondan amalga oshirilishini o'rganish bo'yicha omillar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Psixologiya , psixika, ong, tafakkur, falsafa, tibbiyot, Gippokrat, Erasistrat, bosh miya, nerv sistemasi.*

**Аннотация:** В этой статье зачем нужна психология, чтобы изучить области и исследования психологии, чтобы познать себя и справка, предмет и развитие психологии, история лучше понять близких вам людей, даются науки психологии, изучить реализацию концепций отдельным человеком факторы психики и сознания.

**Ключевые слова:** Психология ,психика , сознание, мышление, философия, медицина, Гиппократ, Эрасистрат, мозг,нерв система.

**Abstract:** *In this article, the study why psychology is needed, e person goes to Psychology to know himself and better understand his loved ones reference, subject and development of Psychology, history of fields and researches, concepts psychology science psyche and consciousness from the individual's point of view study impementation factors are given.*

**Key words:** *Psychology, psyche, consciousness, thingking, medicine , Hippocrates, Erasistratus, brain,nerve system.*

Psixologiya bizning hayotimizda juda muhim bo'lgan fan sifatida qo'llaniladi. Muhimligi shundan iboratki, unda biz xulq-atvor va aqliy jarayonlarimizni ilmiy tarzda o'rganamiz. Psixologiya yaxlit va mustaqil fan sifatida odamlarda gumanistik mentalitetning shakllanishiga xizmat qilib, inson omiliga aloqadorligi, uning shu yo'nalishdagi muammolarni ma'lum ma'noda o'rGANADIGAN barcha fanlar bilan bevosita aloqasini taqozo etadi. Bu birinchi navbatda ijtimoiy-gumanitar fan sohasi bo'lib, psixologiyaning ular orasidagi mavqeyi o'ziga xos va yetakchidir. Agarda hayotimizda psixologiya fani bo'limganda edi, biz umuman turmush tarzimizni tushuna olmasdik. Biz tushunimiz uchun psixologiyaning tadqiqot predmetlari kerak. Bularga

sezgilar, idrok obrazlari, tafakkur va hissiyot, faoliyat va muomala kabi psixologik jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Sinab o‘tilgan narsalar bilan biz butun borliqni his qilamiz, tushunamiz.

Psixologiyaning yomon jihatlari qanday? Bu savolga javob beradigan bo‘lsak, psixologiya fani juda murakkab bo‘lgan fanlardan biridir. Biz uni o‘rganayotganimizda xulq-atvor va aqliy jarayonlarimizni ko‘proq bizdan vaqt talab qiladi. Vaqt ni ko‘proq talab qilishi yetarlicha bilim yetishmasligidir. Psixologiya shunday fanlar sirasiga kiradiki, uning o‘ziga xos rivojlanish tarixi mavjud. Rivojlanish tarixini bir qancha olimlar o‘z faoliyatini ko‘rsatgan. Antik davrdan boshlab psixologik bilimlar falsafa va tibbiyot fanlari negizida rivojlanib kelgan. Yunon shifokorlari Gippokrat, Erasistrat psixikaning organi miya ekanligini bilganlar va inson jonini koinotning ashyoviy bo‘lagi sifatida talqin qilganlar. Yevropa uyg‘onish davrda Leonardo da Vinchi, X. Vives kabilar psixologiyaning rivojiga o‘z hissasini qo‘shdilar. 18-asrga kelib, M.V.Lomonosov, A.N.Radishchev, G.S.Skovoroda, T.Gobbs va boshqalar psixologiyada bir talay kashfiyot qildilar, uni amaliy ma’lumotlar bilan boyitdilar. Psixologiya 19-asrning 2- yarmiga kelib mustaqil fan sifatida ajralib chiqdi.

Psixologiya fani psixika va ong mavzusini o‘z ichiga qamrab oladi. Psixikada biz psixik jarayonlar, holatlar va insonning psixik xususiyatlarini o‘rganamiz. Psixika rivojining oliy shakli -inson psixikasıdir. Psixika alohida olam emasligini bilamiz. Chunki u organik hayotning yuksak shakllaridan bo‘lib, faqat hayvonlar va odamlarga xosdir. Odamda psixik hayotning yuksak shakli ong hisoblanadi. Odamda ong mavjuddir.

Ong haqida gapiradigan bo‘lsak, ong-bu inson miyasining biologik funksiyasi, degan fikr mavjud bo‘lib, u odamga atrofdagi dunyo va o‘zi haqida qandaydir tassavurga ega bo‘lishga imkon beradigan jarayondir. Ong keng ma’noga ega bo‘lgan tushunchadir. Ong tushunchasiga olimlar ham o‘z fikrlarini bildirganlar. Misol qilib, akademik E.M.Sokolov ongni “Shaxsiy tajribalar oqimi, ya’ni tasvirlar, fikrlar, niyatlar va his -tuyg‘ularning o‘zgarishi”, -deb tariflagan. Ongsiz hayotimizni tasavvur qila olmaymiz. Psixika-bu inson ruhiyatining shunday holatiki, bu tashqi olamni ongli ta’rifni aks etishimizni, yani bilishimizni, anglashimizni tushuntiradi. Psixikaning eng yuksak shakli ong hisoblanadi. Bizning hayotimizda psixologiya, psixika va ong jarayonlari mavjud ekan, biz bu go‘zal hayotda bahramand yashayotganimizdan bag‘oyatda xursandmiz. Hayotimizda psixika va ong asosiy rol o‘ynaydi. Inson psixikasi faqat biologik taraqqiyotning emas, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning mahsulidir.

Mening xulosam shundan iboratki, inson psixikasi va uning ruhiy olamiga aloqador hodisalar va jarayonlar shu qadar murakkab va xilma-xilki, biz ba’zan o‘z-o‘zimizni tushunmay qolamiz. Shunday qilib, psixologiya fani o‘rganadigan jarayonlar va hodisalari murakkab va xilma-xiligini o‘rganish qiyin. Shuning uchun biz ong faoliyatimizni rivojlantirishimiz kerak. Hayotimiz davomida hech qachon yomon vaziyatlarga duch kelmaymiz.”Psixologiya” degan tushuncha keng qamrovli bir jarayondir. Psixologiyada ong voqelikni aks ettirishning eng oliy shakli, inson faoliyatini maqsadli ravishda tartibga soluvchi va nutq bilan bog‘langan holda qaraladi. Shaxsning rivojlangan ongi murakkab, ko‘p o‘lchovliligi bilan ajralib turadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. P.I.Ivanov.M.E.Zufarova Umumiyl Psixologiya
2. G’oziyev E “Umumiyl psixologiya” 1-kitobi Toshkent 2004
3. Иманов, Б., & Имонова, М. (2021). Развитие творческих способностей учеников при выполнении проблемных экспериментов по физике с помощью инновационных технологий. Общество и инновации, 2(2), 222-227.
4. Imonova, M. B. (2023). Oila tinchligi-jamiyat faravonligi asosi. Finland academic research science publisher, 1148-1151.
5. qizi Imonova, M. B. (2023). MUSIQANING INSON HISSIYOTIGA TASIRI. Results of National Scientific Research International Journal, 2(3), 156-161.
6. Имонова, М. (2023). Musiqiy tarbiya-qudratli quroldir yohud musiqiy tarbiyaning shaxs shakllanishiga tasiri. Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика, 1(1), 35-37.
7. Имонова, М., & Таджиева, Д. (2023). Boshlangich sinf oquvchilarida milliy tarbiyani pedagogik va psixologik rivojlanishi qonuniyatları. Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика, 1(1), 74-76.
8. Имонова, М. Б. (2021). ШАХС ХАРАКТЕРИ АКЦЕНТУАЦИЯСИ ВА ДЕСТРУКТИВ ХУЛҚ-АТВОР. Academic research in educational sciences, 2(11), 1399-1403.
9. Imanov, B. (2023). NEGATIVE FACTORS AFFECTING THE QUALITY OF EDUCATION AND WAYS TO ELIMINATE THEM. Science and innovation, 2(B3), 355-358.

10. Имонова, М. Б. (2023). ВАЖНОСТЬ СЕСТРОВЫХ ОТНОШЕНИЙ В ЛИЧНОМ РАЗВИТИИ. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 2(22), 120-123.
11. Imonova, M. B. (2023). Causes of Suicide Tendency in Adolescents. Journal of Discoveries in Applied and Natural Science, 1(1), 62-67.
12. Иманов, Б., & Имонова, М. Б. Қ. (2021). ДАРС ТУЗИЛМАСИ ВА УНГА ТАЙЁРГАРЛИК. Academic research in educational sciences, 2(5), 1158-1162.
13. Имонова, М. Б. (2023). РОЛЬ ОТНОШЕНИЯ СИБЛИНГА В ПРОБУЖДЕНИИ МОТИВОВ ОБУЧЕНИЯ ДЕТЕЙ. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(10), 101-104.
14. Imanov, B. B. (2023). O'QUVCHILARNING TABIATDA SODIR BO'LAYOTGAN FIZIK JARAYONLARNI ANGLAB ETISHDA TAJRIBALARING O'RNI. Interpretation and researches, 2(1).
15. Imanov, B. (2023). NEGATIVE FACTORS AFFECTING THE QUALITY OF EDUCATION AND WAYS TO ELIMINATE THEM. Science and innovation, 2(B3), 355-358.
16. Imanov, B. B. (2021). Competences in the quality of education and their organization. ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH, 10(5), 419-424.
17. Imanov, B. B. (2021). Lesson and its analysis as factor of increasing the qualiy of education. European scholar Journal. Available online at//www.scolarzest.com, 1.
18. qizi Karimova, M. N., & Ashurova, S. F. (2023). PROFESSIONAL TA'LIMDA TAHSIL OLAYOTGAN QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH VA ULARDA SOG 'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 369-373.